

O'qituvchi nimani o'yaydi?



Maktabga ishga olingan yosh o'qituvchilarning ko'pi bilimli. Ba'zilari hatto bundan havolaniib, yoshi katta o'qituvchilarni nazarga ilmaydi. "Men zamonaviy dars otaman, bularning metodini o'rgansam, qolipga tushib qolaman", deb o'yashadi.

4-bet

Uzluksiz ta'lif muammolarini uzluksiz mehnatimiz bilangina bartaraf eta olamiz

(K.Jalilovning "Talaba mas'uliyatidagi beshta farq — beshta to'siq" nomli maqolasiga javob)

5-bet

Qo'qon adabiy muhitida zullisonaynlik an'anasi



11-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiga boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yl 20-iyul, shanba № 56 (9225)

Xalq ziyorilari gazetası



Adib taqdiridagi
bitiklar

8-9-betlar



Mushtariy muhokamasi

Menga "layk" bosing!

"Salom, dugonajon, yaxshimisan? Iltimos, shu manzilga kirib, singlim Falonchi Falonchiyevaga "layk" bosib yubor. Bir tanlovdha qatnashayotgan edi, ko'proq ovoz to'plashi kerak."

Gulchehra ASHUROVA:

— "Menga ovoz bering!" aksiyasi epidemiyaga o'xshab, kamayish o'miga kengayib ketapti. Bu jarayonga XTB boshliqlaridan o'qituvchilargacha jaib qilinayti. To'g'ri, hozir texnika asri. Ammo texnikani aralashtirmsandan bitiriladi-gan ishlar ham bor.


fon, ular dars tinglash o'rniga "layk" bosib, ovoz berish bilan ovora. Senga ikkita "besh" qo'yaman, menga "layk" bos, geografiya o'qituvchilaringdan biroz orqadamana-da, desak-a?!

Hafiza RASHIDOVA:

— Joril yil "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanloviga ham yangi shart kiritildi. Bu ham aynan shu "layk"lar bilan bo'g'liq. Buni navbatdagi yolg'onlardan biri deb hisoblayman. dars o'tyapmiz, o'quvchilarimizning qo'lida tele-

3-bet

Abituriyent — 2019



Hurmatli abituriyentlar!

2019/2020-o'quv yili test sinovlarida ishtirot etish uchun abituriyent ruxsatnomasini tarqatish 2019-yl 20-iyuldan boshlanadi. Abituriyent ruxsatnomasini tarqatish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Abituriyentlar 20—29-iyul kunlari internet orqali Davlat test markazi rasmiy web-sayti(www.dtm.uz)ning "Ruxsatnomani chop etish" bo'limidagi maxsus oyнaga pasporti (yoki tug'ilganlik guvohnomasasi) seriyasi va raqamini kiritadi. Ekranda paydo bo'lgan "ABITURIYENTGA ESLATMA" va "ABITURIYENTGA ESLATMA"ni chop etib oladi. Bularni internet tarmog'iiga ulangan kompyuter bo'lgan hamma joyda amalga oshirish mumkin.

2-bet

O'ZBEKISTON PREZIDENTI JAHON BANKI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-iyul kuni Jahon bankingin Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezidenti Siril Myuller boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonlarni samimiy qutlar ekan, O'zbekiston Respublikasi va Jahon banki o'tasidagi uzoq muddatlari va o'zaro manfaatlari hamkorlik munosabatlarda yusaksarajaga erishilganini chuqur mammuniyat bilan qayd etdi.

Jahon banki mamlakatimizda ustuvor tarmoqlarda tarkibiy islohotlarni faol qo'llab-quvvatlamoda hamda ularning amalga oshirilishida bevosita ishtirok etmoqda.

Joriy yil 18-iyul kuni Toshkentda Iqtisodiy kengashning birinchi majlisiga hamda energetika sohasini isloh etish bo'yicha davra suhbat muvaffaqiyatlari o'tkazildi, ular davomida hamkorlikning bosh ustuvor yo'naliishlari, istiqboldagi sherliklikka doir aniq dastur va loyihalar belgilab olindи.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilgan va davom etayotgan loyihalarning umumiy hajmi 5,2 milliard dollarlardan ortgan. Joriy yilning o'zida

Jahon banki 850 million dollardan ziyod bo'lgan yangi kreditlarni ma'qulladi. Ular tadbirkorlik maktabgacha ta'limmni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish kabi yo'naliishlarni qamrab oladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi va kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, "Obod qishloq" dasturini birligalikda moliyalashtirish, raqamlari iqtisodiyoti rivojlantirishga doir loyihalar ishlabs chiqilmoqda.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi bilan Jahon banki o'tasidagi sherliklik aloqalarini kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Bank-moliya sektori va davlat korxo-

nalarini isloh qilish, ta'l'm, tadbirkorlik va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, shuningdek, davlat-xususiy sherkilik shartlarida infratuzilmaiy loyihalarni amalga oshirish masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Siril Myuller davlatimiz rabbariga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, Jahon banki prezidenti Devid Melpassning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Bank O'zbekistonda ustuvor tarmoqlarda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlarning sur'ati va natijadorligini yuskak baholashi qayd etildi.

Siril Myuller mamlakatimiz va butun mintaqanining barqaror taraqqiyoti yo'li da O'zbekiston Respublikasi bilan ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasida Jahon bankingin intilishi qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladi.

O'ZA

Yosh olimlar Belarusga jo'nab ketdi

O'zbekistonlik 64 nafar yosh tadqiqotchi tajriba almashish uchun Belarus Respublikasiga jo'nab ketdi.

Ular Belarus Milliy fanlar akademiyasi, Belarus Milliy universiteti, Belarus Milliy texnika universiteti, Maksim Tank nomidagi Belarus davlat pedagogika universitetida stajirovka o'taydi.

Shu yil 8—11-aprel kunlari Minsk shahrida o'tkazilgan Fan va texnologiyalar sohasida hamkorlik bo'yicha birinchi O'zbekiston — Belarus qo'shma majlisida yurtimizdan yosh olimlarni Belarus Respublikasining nufuzli oliy ta'l'm va ilmiy-tadqiqot muassasalariga qisqa muddatlari ilmiy stajirovka hamda dasturlariga yuborish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi.

Shunga muvoqiq, Innovatsion rivojlanish vazirligini tomonidan tanlov o'tkazilib, Belarus Respublikasiga jo'natalidigan yosh olimlar ilmiy-tadqiqot ishi mavzusi, ularning ilmiy-amaliy yechimi bo'yicha ma'lumotga egaligi, mahalliy va xalqaro jurnallarda, konferensiyalarda maqola va tezislar bilan ishtirok etgani kabi tamoyillar asosida sara lab olindi.

22-iyul kuni mamlakatimizdan yana bir guruh yosh olimlar, oliy ta'l'm muassasalarining ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlari va ilmiy-tadqiqot institutlari direktorlarining ilm-fan bo'yicha o'rincbosarlar tajriba almashish uchun Belarus Respublikasiga jo'natalidi. Safar davomida ular ushu mamlakatdagi innovations ekonomuhib, ya'ni ilmiy-tadqiqot natijalarining iqtisodiyotga joriy etilishi tizimini banishadi, yangi hamkorlik aloqalarini yo'lda qo'yish masalalarini muhokama qiladi. Bu mamlakatimizda innovations muhitini shakllantirish va rivojlantirish yo'lidagi navbatdagi qadam bo'ladi.

Belarus davlati taraqqiyotining asoslaridan biri ilm-fanga alohida e'tibor qaratilayotganidir. Belarus ilmiy ishlarni bugungi kunda mashinasozlik, uskunasozi, energetika, mikrobiologiya, tibbiyot, farmasevtika va boshqa sohalarda muvaffaqiyatli joriy etib kelimoqda.

O'zbekistonning ushu mamlakat bilan hamkorligi fan va texnologiyalar bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish, uni amaliyotga joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish sohasini birligalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hurmatli abituriyentlar!

(Davomi. Boshi 1-betda.)

2. www.dtm.uzdan ruxsatnomasini 22-iyulgacha olmagan, kunduzgi ta'l'm shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar 23—26-iyul kunlari quyidagi muassasalariga murojaat etishi va ruxsatnomalarini olishlari mumkin:

— yashash joyidan qat'i nazar, ixtiyoriy tuman(shahar)dag'i Davlat xizmatlari markazlari;

— yashash joyidan qat'i nazar, ixtiyoriy oliy ta'l'm muassasalarini qabul komissiyalari;

— yashash joyidan qat'i nazar, ixtiyoriy Bandlik va mehnat muosabatlari vazirligining tuman (shahar)bo'limalri.

Ushbu tashkilot xodimlari DTMning rasmiy veb-saytidan yuqorida qayd etilgan tartib bo'yicha abituriyentga chop etib beradi.

3. DTMning www.dtm.uz rasmiy veb-saytidan ruxsatnomasini 25-iyulgacha olmagan, sirtqi va kechki ta'l'm shakllari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar 26—29-iyul kunlari quyidagi muassasalariga murojaat etishi va ruxsatnomalarini olishlari mumkin:

— yashash joyidan qat'i nazar, ixtiyoriy tuman(shahar)dag'i Davlat xizmatlari markazlari;

— yashash joyidan qat'i nazar, ixtiyoriy oliy ta'l'm muassasalarini qabul komissiyalari;

— yashash joyidan qat'i nazar, ixtiyoriy Bandlik va mehnat muosabatlari vazirligining tuman (shahar)bo'limalri. Ushbu tashkilot xodimlari DTMning www.dtm.uz rasmiy veb-saytidan yuqorida qayd etilgan tartib bo'yicha abituriyent ruxsatnomasini abituriyentga chop etib beradi.

Ruxsatnomalar barcha tashkilotlar tomonidan bepul chop etilib, tarqatiladi.

ESLATMA:

ABITURIYENT RUXSATNOMASINI CHOP ETISH TARTIBI

1-bosqich. Davlat test markazining www.dtm.uz rasmiy veb-saytiiga kiriladi.

2-bosqich. Saytning "Ruxsatnomani chop etish" bo'limga kiriladi.

3-bosqich. Abituriyentning pasporti (yoki tug'ilganlik guvohnomasasi) seriyasi va raqami kiritiladi.

4-bosqich. Ekranda paydo bo'lgan "ABITURIYENT RUXSATNOMASI" va "ABITURIYENTGA ESLATMA" chop etiladi.

"Qabul – 2019" qanday o'tadi?

O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashida "Yoshlar press-klubi"ning navbatdagi sessiyasida mazkur savolga javob topishga harakat qilindi.

Muloqot davomida O'zbekiston Respublikasi ta'l'm muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan oliy ta'l'm muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlari to'g'risida ma'lumot berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi "Oliy ta'l'm muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chorha-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining mazmun-motasiya test sinovlarda ishtirok etishi uchun eng kam ish haqining yarim barvari miqdorida to'lov undirish kabi yangiliklar joriy etildi.

Ushbu hujatga asosan oliy ta'l'm muassasalariga o'qishga qabul qilishda o'tkaziladigan test sinovlarini xalqaro standartlarga muvoqiflashirish, yoshlarning ta'l'm olishiga bo'lgan ishtiroqini rag'batlantirish maqsadida abituriyentlarning bir nechta bakalavriat ta'l'm yo'naliishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etishlari

uchun imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, 2019/2020-o'quv yili qabulidan boshlab abituriyentlarga test si-novi topshiriladigan fanlar majmuasi bir xil bo'lgan uchtagacha bakalavriat ta'l'm yo'naliishida tanlovda ishtirok etish huquqini berish, test sinovlarini iyul-avgust oylarida o'tkazish, test sinovlari tashkil etilayotgan o'quv yildidan avvalgi yillarda ta'l'm muassasalarini tugatgan abituriyentlardan (nogironligi bo'lgan yoki to'liq davlat ta'minotidagi shaxslar bundan mustasno) test sinovlarda ishtirok etishi uchun eng kam ish haqining yarim barvari miqdorida to'lov undirish kabi yangiliklar joriy etildi.

Shu bilan birga, mazkur hujatga muvoqiq, abituriyentning test sinovida to'plagan ballari haqidagi ma'lumotni test sinovi o'tkazilgan kunning ertasiga, uning talabalikka tavsija etilgani yoki etilmaganiga to'g'risida tasdiqlangan tanlov natijasini test sinovlarini

o'tkazish jarayoni to'liq yakunlangandan keyin bir hafta muddat ichida Davlat test markazining rasmiy veb-saytiiga e'lon qilish belgilidir.

Davlat test markazi mutasaddilaring ma'lumotiga ko'ra, joriy yilda oliy ta'l'm dargohining bakalavriat yo'naliishida tahsil olish uchun 1 million 66 ming 925 nafar abituriyentdan hujjat kelib tushgan. Bu o'tgan yil-larga nisbatan eng katta ko'rsatkich sanaladi. Hujjat topshirganlarning 49,9 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Abituriyentlarning 150 ming nafaridan ortig'i esa 1990-yildan oldin tug'ilgan shaxslardir. Eng yoshi kichik abituriyent 14 yoshda bo'lib, Qashqadaryo viloyatida biologiya yo'naliishi, eng yoshi katta abituriyent esa xorazmlik 87 yoshli otaxon oliy o'quv dargohining jismoniy tarbiya yo'naliishi bo'yicha hujjat topshirgan.

Sessiyada mutasaddi tashkilot valillari yoshlar hamda omavviy axborot vositalari xodimlarining savolalariiga batafsil javob qaytaridi.

N.USMONOV,
O'ZA muxbir

O'ZA

Mushtari muhokamasi

Menga "layk" bosing!

"Salom, dugonajon, yaxshimisan? Iltimos, shu manzilga kirib, singlim Falonchi Falonchiyevaga "layk" bosib yubor. Bir tanlovdan qatnashayotgan edi, ko'proq ovoz to'plashi kerak".

Shu mazmundagi xabar sizga ham tanishmi? Albatta, tanish bo'lsa kerak. Chunki hozir internet foydalanuvchilarining aksariyati bu kabi iltimoslarni goh xohlab-xohlamay, goh tushunib-tushunmay bajarishgan. Men ham dugonamning ra'yini qaytarmay, bitta "layk" bosib, bosibman-da deb, aytligan guruhga kirdim. Unda talabalarning turli suratlari joylangan edi. Talabalar yoki boshqa soha egalari tushunsa bo'ladi, ammo bu kabi soxta ovoz to'plashlar o'qituvchilar orasida ham allaqachon ommalashib ulgurdi. Har bir yangilik va o'zgarishlarga hozirjavob mushtariylarimizning ushbu mavzuga ham mulohazalari tayyor!

Sharifjon XOLBO'TAYEV:

— Internetning zamoni kel-di. Voqealar shu qadar jadal kechmoqdaki, dunyoning narigi tomonida turib, qaysidir davlatdagi yan-giliklardan bernalol xabardor bo'lyap-miz. Shuningdek, jarayonga o'z fikrimizi bildira olyapmiz. Yurtimizda internet kirib bormagan sohaning o'zi qolmadidi. 7 yoshdan 70 yoshgacha — hamma internet shaydoi. Shu qatori o'qituvchilar ham. Internetdagi "layk-bozlik"lar xalq ta'limi xodimlarining faoliyatiga ham begona emas. Biroq pedagoglarning bilimi, mahoratini ijtimoiy tarmoqlarda to'plagan "layk"lari bilan baholash mantiqsizlik. O'qituvchilar ijtimoiy tarmoqlarda o'z faoliyatini yoritib borishi, albatta, yaxshi, lekin buning ham chegarasi bor! Ustozlar mana shu chegarani bilib olishlari kerak. Avvalo, pedagoglarning faoliyati o'zi ishlayotgan muassasaning internetdagi manzilida yoritilishi hamda ular ijtimoiy tarmoqda "layk" yig'ishga majbur qilinmasligi lozim.

Gulchehra ASHUROVA:

— "Menga ovoz bering!" ak-siysi epidemiyaga o'xshab, kamyish o'rniga kengayib ketayti. Bu jarayonga XTB boshliqlaridan o'qituvchilargacha jaib qilinayapti. To'g'ri, hozir texnika asri. Ammo texnikani aralashirmsandan bitiriladigan ishlar ham bor. Televizorda ko'p ko'rganmiz. Shu qo'shiqqa ovoz bering, deb ashula to'liq tomoshabin e'tiboriga havola qilinadi. Uni eshitib, har kim o'z

dunyoqarashidan kelib chiqib ovoz beradi. Ammo o'zingiz tanimagan-bilmagan boshqarma boshlig'i, direktor yoki o'qituvchiga ovoz berish g'alatimas-mi?! Axir "layk" bosuvchilar ularning faoliyatidan mutlaqo bexabar-ku. Sox-ta ovozlarning kimga keragi bor?!

Dilfuza SUVONOVA:

— Hatto yangi simkarta sobit oldirib, o'ziga ovoz yig'ganlarni ham eshitdim. Tasavvur qiling: dars o'tyapmiz, o'quvchilarimizning qo'li-da telefon, ular dars tinglash o'miga "layk" bosib, ovoz berish bilan ovora. Senga ikkita "besh" qo'yaman, menga "layk" bos, geografiya o'qituvchilarindan biroz orqadamana, desak-a?! "Mening kimligimni el bilsa bo'ldi", deyishadi. Bizning qanday o'qituvchi yoki mutaxassis, rahbar ekanimizni aziz o'quvchilarimiz-u, ota-onalar, mehnat qilayotgan jamoamiz bilsa bo'ldi, muhim shu emasmi?

Sh.ERGASHEVNA:

— Buni zamonaviy qilib "layk-bozlik" deyish mumkin. Kimga nimani do'ndirgani uchun ovoz beramiz?! Mayli, o'sha o'qituvchining faoliyati, yutuqlari haqida gazeta, jurnallarda maqolalar e'lon qilinsin, o'qiylik, ish tajribasi yoki fanga qo'shayotgan hissasi bilan tashaylik, keyin ovoz bersak, xolis bo'ldi, fikrimcha... Buning oqibatida mayjud muammo va kamchiliklarga ko'z yumish, ularga yuzaki munosabatda bo'lish boshlamadi. Hammasi yaxshi, hammasi zo'r, degan bilan ahvol yaxshilanib qolmaydi.

Hafiza RASHIDOVA:

— Joril yil "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanloviga ham yangi shart kiritildi. Bu ham aynan shu "layk"lar bilan bo'g'liq. Buni navbatdagi yolg'onlar dan biri deb hisoblayman. 2016-yilgi nizomda ishtiokchining ayrim haq-huquqlari qisman cheklangan edi. Nimaga nizomlardan ishtiokchilar ning ko'ngli to'lmaydi? Avvalo, tanlovlarning haqoniyigini ta'minlash kerak. Yolg'onning kimga keragi bor yoki bu tarzda o'tadigan tanlovdan kimga naf? Bu kabi vaziyatda bilimli, zukko muallim o'rniga, bilimi yetar-bi 'Imagan, ko'pgina "yolg'onchi layk"larni jamlagan pedagog g'olib bo'lishi hech gap emas. Nima uchun inson qadri "yo'q narsa" bilan o'chan-yapti? Nizom shaffof, saviyali, sodda hamda ishtiokchining haq-huquqlari himoyasiga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'QITUVCHI:

— Men bu yil "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanloving viloyat bosqichi g'olib bo'ldim. Keyingi bosqichda gi mezonlarga ko'ra, "Facebook" ijtimoiy tarmog'ida internetni yaxshi tushunadigan tanishlarimidan iltimos qilib shaxsiy sahibfamni ham ochdim. Ammo yashaydig'an hududimda internet tezligi pastligi sabab doim faol bo'la olmadim. Qolaversa, bu tarmoq da do'stlarim ham sanoqli edi. Shu sababdanim, juda kam ovoz to'pladim. Tanlov shartlariga kiritilgan bu yangilik dastlab ko'philika manzur bo'lgandi, ammo jarayonda bildimki, buni o'ta haqqoniy deb bo'lmas ekan. Uning o'miga o'qituvchining bir yil davomida ta'limda erishgan yutuqlari, o'quvchilarining failligi va boshqalar inobatga olansa yaxshi bo'lardi. Pedagoglarga tanigan-tanimaganlarning shunchaki "layk"lari orqali baho berish to'g'ri yo'l emas. Mas'ullar buni har tomonlama o'yab, respublikadagi barcha o'qituvchilarning imkoniyatlari teng baholab, keyin yangilik kiritса, yaxshi bo'lardi.

Yulduz IBROHIMOVA:

— Guruhlardan biriga kelgan xabarni ko'ring: "Bu bizning direktori M.Rasulova. Halol, vijdonli va bilimli rahbar. Hozir negadir onlays ovoz muhim bo'lib qoldi. Sizlardan iltimos, direktorimga "layk" bosib yuboringlar". Jonkuyar xodim rahbariga ovoz yig'ish uchun bu taklifi o'zi a'zo bo'lgan hamma guruhga yuborib chiqqan bo'lsa kerak. Ajablanarlisi, bu o'yinga XTB mudiri ham qo'shilgan. O'z-o'ziga "layk" talab qilish qiziq bo'larkan. Shaxsan men har xil iltimoslarni inobatga olmayman. Tanimagan kishimga "layk" bosmayman. Xalq ta'limi boshqarmalari ovoz berilishini aytmasizmi? Tag'in bu majburiy! Bundan bir necha oy avval Xalq ta'limi vazirligining tegishli "Telegram" ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida "XTVning viloyat boshqarmalari ishiga baho bering", deb boshlanadigan onlays so'rovnomasi o'tkazilgan. Ma'lum bo'lishicha, XTV qaysi viloyat XTB samarali ishlayotganini shu yo'l bilan aniqlamoqchi bo'lgan. Aslida esa tashkilotchilarga bundan hech qanday naf yo'q. Ammo bu kabi so'rovlar juda nisbiyligi hammamizga kundek ravshan. Boshliqlar shunday yo'l tutisha, o'qituvchilardan nimani kutish mumkin.

Dildor NURMUHAMMEDOVA:

— Eng avvalo, ovozni vijdon bersin. So'ng o'quvchilar! Ana undan keyin ommadan ovoz yig'sa, yarashadi.

Mayluda MUQIMOVA:

— Eng achinarlisi, ayrim pedagoglarga rahbarlari "layk" bosmagani uchun do'q-pisa ham qilyapti. Ayrim o'quvchilar "layk" nimaligi va u qanday bosilishini bilmay xunob bo'lgani ham rost. Oldingilar bekorga aytmasiz, "Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt". Shu fikrlarni o'z vaqtida yozganimizda bunday "yangicha" baholanishga ertaroq chek qo'yilarmi?

Niginabonu SHUKUROVA tayyorladi.

O'qituvchi minbari

Siz bechora emassiz!

#yilo 'qituvchisi 2019 hushtagi (kechirasiz, xeshtegi) haqida avval ham yozgan va xeshteg-chilarining assosiz malomatiga nishon bo'lgan edim.

Aziz va qadrdon o'qituvchi, hamkasb! Siz noto'g'ri qilyapsiz. Ayni damdag'i harakatlari-ningiz, avvalo, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi — 2019" ko'rik-tanlov nizomiga, internetdan foydalanish, qolaver-va, insoniylig madaniyatiga to'g'ri kelmaydi. "Portfolio" deb bo'lar-bo'lmas qog'ozlarni,

rasmalarni joyladingiz. Eng achinarlisi, sir saqlanishi lozim bo'lgan shaxsiy ma'lumotlari-ningizni ham interneta nomoyish etdingiz. Bu ishingiz maqbul emas. Deyarli hamma tanish-notanish "do'st"laringizga "Iltimos, menga ovoz bering", deb yozdingiz. Ijtimoiy tarmoq-dagi guruhlarga tarqatdingiz: "Iltimos, menga ovoz bering". "Facebook", "Telegram", "Instagram"da yozdingiz: "Iltimos, menga ovoz bering". Ishxonada, qishloqda, viloyatda yalinib

yuribsi: "Iltimos, menga ovoz bering". Bugun esa boshqalarining maqolalariga sharh yoza-yotib ham "Iltimos, menga ovoz bering", deyishni unutmadingiz. Men ham o'qituvchiman. Sizni tushunaman. Lekin bosh-qalar ustingizdan kulta, chiday olmayman. Siz ziyolisiz. Kuchlilarining kuchlisiz. Shunday ekan, ovoz olishing boshqacha yo'lini tanlang. Pedagogikadagi muammolar va uning yechimlari haqida yozing. Mayli, mukammal

bo'lmisin, xalq tushunadi, zo'r ekaningizni biladi va qo'llab-quvvatlaydi.

Internetda bir qarashda ni-malarga qodir ekaningizni bila-digan, baholaydigan auditoriya bor. Bu auditorianing beradi-gan bahosi juda qimmat va xolis.

Shunday ekan, do'ppi-ni bir chekkaga qo'yib, yax-shilab reja tuzing. Yozishdan oldin interneta yozilayotgan qaydlarni sinchiklab, ko'p va xo'b o'qing. Yozing, yozganda ham hammani hayratga sola-

digan qilib yozing. So'zlarim malol kelgan bo'lsa, uzr. Sizga do'stona, xolis maslahatimni berdim. Zero, ot tepkisini ot ko'taradi. Yana o'zingiz bilasiz...

P.S. Do'st achitib gapiradi. Aksariyot odamlarning siz ha-qingizda "Bechora o'qituvchi "layk" so'rayverib, qiymalib ketdi," deyishlari yurak-yu-ragimdan o'tib keidi. Siz bechora emassiz-ku.

"Facebook"dagи "Qishloqlik o'qituvchi"

Prezident maktabi: shikoyatlar qabul qilinmaydi



Xalq ta'limi vazirligida Cambridge Assessment International Education (Buyuk Britaniya) tashkiloti vakillari ishtirokida Toshkent, Nukus, Namangan va Xiva shaharlaridagi Prezident maktablariga o'quvchilarni qabul qilishda o'tkazilgan saralash imtihon natijalarini va asosiy bosqich imtihonlari jarayoniga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Ta'kidlanganidek, saralash imtihonlarda ro'yxatdan o'tgan 28 452 nafar nomzoddan 27 471 nafari ishtirok etdi. 981 nafar o'quvchi hujjatdagi kamchiliklari tufayli imtihon topshirishga tavsiya etilindi.

Cambridge Assessment International Education tashkiloti 16-iyul kuni saralash bosqichi natijalarini o'z veb-saytidan e'lon qildi.

Unga ko'ra, nomzodlar bir xil ball to'plagan bo'lsa, afzallik imtihonda "C" toifasidagi savollarga ko'proq ball yiqqanlarga, keyin esa "B" toifasidagi savollarga ko'proq ball to'plaganlarga berildi. Agar barcha toifadagi savollar bo'yicha bir xil umumiy va teng ball to'plangan taqdirda, nisbatan yoshroq nomzod tanlab olindi.

Asosiy qabul imtihonlari ham Cambridge Assessment International Education tashkiloti vakillari tomonidan tashkil etiladi. Jarayonning ochiqligini maqsadida nomzodlarning

ota-onalari va yaqnirlari uchun kuzatuv monitorlarida onlayn translyatsiya olib boriladi.

Imtihonlarning asosiy bosqichi axborotni tahlil qilish va solishtirish qobiliyatini aniqlash bo'yicha (16 ta masala), mantiq elementlari bo'lgan matematika fanidan (24 ta masala) hamda ingliz tili (55 ta test savoli) fanlaridan iborat bo'ladi.

O'quvchilar to'plagan ballarning asosiy qismi (80 foizi)ni tanqidiy fikrash va mantiqiy bilimni talab etuvchi topshirqlarni bajarish orqali yig'ishlari mumkin. 20 foizigina ingliz tili faniga to'g'ri keladi. Shu bois ingliz tilidan mukammal tayyorlarlikka ega bo'lmay, tanqidiy va mantiqiy fikrash qobiliyatni yaxshi rivojlangan bo'lsa ham, nomzodlarning Prezident maktablariga qabul qilinish ehtimoli yuqoriligicha qoladi.

Yuqori sinf o'quvchilari uchun ingliz tilining ahamiyati qariyb 40 foizidan

ziyod bo'lishi kutilmoqda. Sababi, ular kelgusida xorijlik o'quvchilar o'tadi-gan STEAM fanlarini o'rganish uchun yetarli salohiyatga ega bo'lislari zarur. O'quvchi xohlasi, tanqidiy fikrash va mantiq bo'yicha imtihonlarni inglez tilida ham topshirishi mumkin.

Cambridge Assessment International Education qaroriga ko'ra, nomzodlar va ularning ota-onalari imtihon natijalarini yuzasidan apellyatsiyaga berish hamda imtihon ishlarini tekshirish huquqiga ega emas.

Asosiy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan talabgor Prezident maktabida o'qishni rad etsa yoki birinchi chorak davomida o'qishni tark etsa, ro'yxatdag'i eng yuqori ball to'plagan, lekin o'qishga kirolmagan nomzod bo'shagan o'rning taklif qilinadi.

Shu bilan birga, hozirgi kunda Xalq ta'limi vazirligi asosiy imtihon natijalariga ko'ra Prezident maktabiga qabul qilinmagan bir guruh o'quvchilarni boshqa ixtisoslashtirilgan maktablarga imtihonsiz qabul qilish tartibini ishlab chiqmoqda.

Xayrullo ABDURAHMONOV



Har o'quv yili oldidan o'qituvchilar uchun tashkil etiladigan tibbiy ko'rikning haqqoniy o'tishini ta'minlash kerak. Sababi, shunday o'qituvchilar borki, ish lab qilsangiz yoki topshiriq bersangiz, darrov tobi qochadi. 15 kun ish-lasa, 15 kun kasal. Axir o'quv yili boshida tibbiy ko'rikdan o'tganda "sog'lom", "o'qituvchilikka yaraydi" degan tavsiya bilan keladi-ku.

Barno NASIMOVNA

Maktabga ishga olingan yosh o'qituvchilarning ko'pi bilimli. Ba'zilari hatto bundan havolanib, yoshi katta o'qituvchilarni nazarga ilmaydi. "Men zamonaviy dars o'taman, bularning metodini o'rgansam, qolipga tushib qolaman", deb o'ylashadi. Ammo bir yil ham ishlamay, maktabdan ketishga qaror qilishadi. Chunki o'sha bilimni bolalarga yetkazib berolmaydi, darsga qiziqtirilmaydi. O'quvchilar bilan til topisha olmaydi.

Gulmira HAYDAROVA

Har qanday loyihani avval qishloq sharoitida sinovdan o'tkazish kerak. Agar qishloqda amalga oshsa, shaharda 200 foiz ijobiy natija beradi.

Oybek URUNOV

Hozirgi kunda aksariyat maktab kutubxonalarini juda ham tor. Ayniqa, qishloqlarda. Agar ularni kengaytirib, o'quvchilar kechki vaqtgacha bernalol dars qilishiga sharoit yaratsak, yaxshi natija berardi. Qaniyi, "Obod qishloq" dasturi-da shularga ham e'tibor qaratilsa.

Shahboz TILOVOV

"Maktabga metodist kelyapti", degan xabarni eshitdi, deguncha o'qituvchilarning rang-ro'yi o'chadi. Aslida metodist o'qituvchiga uslubiy jihatdan ko'mak beruvchi mutaxassis. Muallim metodistning maktabga kelishini ilhaq bo'lib kutishi, undan foydalanan qolishi kerak emasmi?! Afus, o'z fanini yaxshi bilmay, o'quvchilarga tuzukroq dars berolmay, metodist bo'lishga oshiqqan mutaxassisni hech kim kutmaydi. Sababi, u yordam bermaydi, faqat tekshirish va ayb topish uchun keladi.

Muhammadali RUSTAMOV

Saksoninchi dovondagi diydorlashuv

Adabiyot tarozisining posangisini to'g'rilab turadigan kishilar boladi. Ular vaziyat taqozosini bilan maydonga chiqsa kerak. Chunki bunday kishilar hamma davrlarda ham kamsonli bo'lgan. Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor kabi adiblar o'z davrida shu vazifani bajargan. Yetishib kelayotgan avlodga yo'l-yo'riq ko'rsatgan, millat va adabiyot taqdirini o'ylab jon koyitgan.

"Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibi, ustoz Mahmud Sa'diy ham shunday millatparvar, fidoyi insonlar qatorida turadi. Milliy matbuot markazida ana shu ulug' insonning 80 yilligiga bag'ishab "Adabiyot qadrati, ijod ma'rifati, tahrir san'ati, murabbiylik mas'uliyati" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda millat ziyorolarining katta avlod vakillari, ustoz journalistning oila a'zolari va shogirdlari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda so'z o'lganlar Mahmud Sa'diy haqidagi unutilmas esdaliklari bilan o'rtoqlashdi.

— Mahmud Sa'diy "Shahardon odam keldi" nomli ilk hikoyamni tahrir qilib, e'lon qilishda bosh-qosh bo'lgan, — deydi O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam. — Tahrir jarayonida qanday tuzatish kiritilmasin, e'tiroz bildirishga ehtiyoj bo'lmagan. Chunki tuzatishlar o'rinni edi. To'rt yil davomida Mahmud Sa'diy bilan "Guliston" jurnalida birga ishlab, u kishidan har bir



jumla, har bir so'zga e'tibor qaratishni, tahrir san'atini o'rganganman.

Tadbir davomida samimiylikka yo'g'rilgan fikrlar, tilaklardan so'ng Mahmud Sa'diyiga O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi hamda ustoz journalist faoliyat yuritgan tahririyatlarning esdalik sovg'alari topshirildi.

Suhrob ZIYO

Mutasaddilardan javob keldi

Yangi talablar

Gazetaning shu yil 11-may sonida "Nopedagog direktor mifikatlari boshqara oladimi?" sarkavhal maqola e'lon qilingandi. Ushbu maqola yuzasidan tahririyatimizga Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rbinbosari A.Umarov imzosi bilan quyidagi javob xati keldi:



"Prezidentimizning 2018-yil 5-sentabr-dagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 19-bandida Xalq ta'limi vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birlgiligi uch oy muddatda 2019-yil 1-sentabrdan boshlab direktorlarning menejerlik ko'nikmalariga ega bo'lishiga doir majburiy talabni o'z ichiga olgan direktorlarni sertifikatshtirish tizimini bosqichma-bosqich joyri etish, shuningdek, direktor o'rbinbosarlarining mas'uliyatini oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarini rahbarlariga qo'yiladi. Malaka talablarini qayta ko'rib chiqish vazifasi yuklatilgan.

Mazkur topshiriq asosida Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 17-yanvardagi 16-sonli buyrug'iaga asosan umumta'lim maktabi direktori lavozimiga:

eng kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot. Qo'shimcha kasbiy ta'lim — menejerlik faoliyati bo'yicha qayta tayyorlarlik va malaka oshirganlik maqsadiga muvofiq;

mehnat faoliyati davomida kamida uch yilda bir marotaba qo'shimcha professional dasturlar asosida menejerlik faoliyati bo'yicha ta'lim olganlik;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish uchun cheklolvar mavjud emasligi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha savodxonligi;

bolalar (o'quvchilar) bilan va ta'lim muassasalarida turli lavozimlarda 3 yillardan kam bo'lmagan ish tajribasi;

rahbarlik lavozimida 3 yillardan kam bo'lmagan ish tajribasi kabi talablar belgilangan.

Shuningdek, mazkur talablarga mos nomzodlar orasidan umumta'lim muassasasi direktorini tayinlashda maktab kuzatuv kengashi a'zolarining fikri inobatga olimadi, ya'ni ularning xulosasi asosida nomzodlar direktor lavozimiga tayinlanadi.

Uzluksiz ta'lim muammolarini uzluksiz mehnatimiz bilangina bartaraf eta olamiz

(K.Jalilovning "Talaba mas'uliyatidagi beshta farq — beshta to'siq" nomli maqolasiga javob)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida ta'lim va ilm-fan sohasi vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvida oly ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi-kun talablariga javob berolmayotgan tanqid qilindi. Talabalar, akademiklilar, rektorlarning fikrlari eshitildi, muhokama etildi.

Majlisda belgilangan topshiriqlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida oly ta'lim muassasalari rektorlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari direktorlari ishtirokida mavjud muammolarini Xalqaro press-clubda muhokama qilish vazifasi belgilandi. Respublikamizning barcha viloyatlarida o'tgan Xalqaro press-club sessiyalarida jami 50 ta olyi ta'lim muassasasi rektorlari, professor-o'qituvchilar va talabalari, tadbirdorlar, ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari vakillari hamda homiyalar o'zlarining fikr-mulohazalarini "O'zbekiston 24" telekanali orqali xalqimiza yetkazish imkoniga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi rahbariyati ishtirokida Xalqaro Press-clubning "O'zbekiston oly ta'lim tizimi: islohotlarning yangi bosqichi, muammolarning chuqur tahsilii va tezkor yechimlari" mavzusidagi navbatdagi yakuniy sessiyasi 26-iyun kuni Yoshlar ijod saroyida o'tkazildi.

Kalqaro press-club sessiyalarini doira-sida olyi ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni, ma'naviy muhit, moddiy-teknika bazasi, ilmiy tadqiqot ishlari, talabalar turarjoyi, hudoqlarning obodonlashtirilish holati, umuman, OTM hayotining barcha jabhalaridagi muammolar o'rganildi hamda ularning yechimlari yuzasidan konstruktiv ruhda fikr almashildi. Mana buni muammolarni yechishning samarali yo'li desa bo'ladi. Vaholanki, bugungi kunda respublikamizdagi har bir olyi ta'lim muassasasi jamoasi o'z tashabbusi bilan obodonlashtirish, ta'mirlash ishlariga bel bog'igan. Maqsad aniq: yangi — 2019-2020-o'quv yiliiga o'tgan yillardagiga nisbatan bir emas, bir necha pog'ona yuqori darajada tayyorgarlik ko'rish. Respublikamizda xalqaro ta'lim makonida o'z o'niga ega bo'lgan institut va universitetlarning yangidan yangi filiallari ochilmoxqa. Ularda tayyorlangan yuqori malakalni mutaxassislar nafaqat o'z sohalarini, balki jamiyatimizning ertangi kununi ham o'zgartirishga qodir bo'lib yetishadilar.

Yuqorida qayd etilgan o'zgarishlar ta'sirida joriy yil 29-may kuni "Ma'rifat" gazetasida "Talaba mas'uliyatidagi beshta farq — beshta to'siq" nomli maqolaga ko'zim tushib, dastlab hayratlandim. So'ngra muallif kimligini bilib, hayratidan asar ham qolmadidi. Buning sababi bor. Bu muallifning

birinchi maqolasi emas. Ularning ayrimlariga pedagog-olimlar tomonidan mazmuniga mos javob ham berildi. Ammo, nima ham deridik, erkin va ochiq siyosat, so'z erkinligi degan tushunchalar bor. Maqola nomiga e'tibor qaratamiz: "Talaba mas'uliyatidagi beshta farq — beshta to'siq".

Endi kamchiliklarni bartarf etishning ham "beshta" bosqichiga to'xtalib o'tsam. To'g'ri, **birinchidan**, ish jarayonida kamchilik mavjud bo'lsa, uning mavjudligini tanqid qilish, **ikkinchidan**, uning sabablarini aniqlash va **uchinchidan**, uni qanday bartaraf etish ustida o'ylash kerak. **To'rtinchidan**, ushbu ta'lim-tarbiyaga, ayrim shaxslarga daxldor bo'lgan nozik masalada markaziy ommaviy axborot vositalarida chiqish qilishdan oldin uni o'zi ishlayotgan jamaoa e'tiboriga yetkazib, ularning ham fikrini olish maqsadga muvofiq. **Beshinchidan**, o'qitish metodikasini, ta'lim mazmuni yoki shaklini o'zgartirishni taklif qilar ekan, muallif o'zining tajribasini boshqalar bilan baham ko'rsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Albatta, buning uchun biz K.Jalilov o'z pedagogik faoliyatida respublikamizning qaysi oly ta'lim muassasasida shunday yutuqlarga (asosli natijalarga tayangan holda) erishganini aniq bilishimiz zarur. Yana bir gap: shunday Sharq va G'arb tafakkuri negizida mukammal texnologiya ishlab chiqilgan va amaliyotga tabiq etilgan bo'lsa, marhamat, mahorat darsi tashkil qilinsa, hammamiz tayyormiz bunday muhim tajribani o'z ko'zimiz bilan ko'rishga. Ammo, afsuski, men shu kunga qadar "**K.Jalilov metodikasi**" to'g'risida eshitmaganman. U faoliyat ko'rsatgan oly ta'lim muassasalari mutaxassislarini ham muallifning bunday yutuqlarini yetarli darajada ta'riflay olishmadi, talabalar ham K.Jalilov bergan darsdan qoniqmagannligidan xabarimiz bor.

Men shaxsan o'zim oly ta'lim tizimida yigirma besh yil davomida faoliyat ko'rsatsam ham (balki shuning uchundir?) "**nomi o'zgargani bilan mohiyatini sovetcha**" degan bahoga qo'shilinmayman. Zero, O'zbekistonda mustaqillikdan keyin ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Shaklan oladigan bo'lsak, bu oly ta'lim muassasalarining 1991-yildan boshlaboq son jihatidan oshib borishini kuzatish mumkin. Mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "**Ta'lim to'g'risida**"gi o'z qonuniga ega

bo'lishi ham katta muvaffaqiyat. Ammo uning faqat so'nggi ikki-uch yildagina to'laligicha hayotimizga tatbiq etila boshlagani ham bor haqiqat.

Kim biladi, balki Kolumbiya universiteti, London universiteti kollejida tahsil olish jarayonida muallif ko'p yangiliklardan bexabar qolgandir. Ammo ma'lum bir tizimdag'i kamchiliklarni faqat bir tashkilot yoki vazirlik, ayniqsa, bir shaxs bilan bog'lash noto'g'ri.

Muallif matniga qaytamiz: "Hurmattli Vazir! Umid qilamanki, murojaatinga shunchaki qonunda belgilangan muddat ichida "javob" yuborib, esdan chiqarsa bo'ladigan murojaat sifatida qaramaysiz (bundan oldin ham vazirlikdan yetarlicha "otpiska"lar olgaman, faqat ulardan hech qanday samara-naf bo'lmagan)".

Bunday maslahat va tanqidlarga nisbatan bayon etilgan fikrlar bilan tanish emasman. Agar ular to'g'ri bo'lsa, muallif bunga ishonса, ular to'g'risida ochiq muloqot qilishi, zarur bo'lsa, bahslashishi kerak. Demoqchi bo'lganim, K.Jalilov o'zi sevgan mavzu — oly ta'limni isloh qilish masalalarda vazirlikka taklif qilinganida "Seshanba kuni boraman", deb kelmagani sababini maqola mazmuni bilan tanishgandan keyin to'g'ri tushundik.

Istardimki, har sohadan kamchilik qidiravermasdan, mavjudlarini bartaraf etish ustida o'ylasak, bahslashsak va hamkorlikda maqsadimizga erishsak. Biz ta'lim-tarbiya to'g'risida so'z Borganda bejiz "uzluksiz ta'lim" tushunchasini ishlatmaymiz. Zero, quyi bo'g'lnarini — maktabgacha, umumiyo o'rta, o'rta maxsus ta'lim turlarida olib borilayotgan islohotlarda muhim natijalarga erishmasdan turib, oly ta'limga "tosh otish" insofdanmas. Maktabgacha ta'lim muassasasini ko'rman, maktabda bir sinfdagi 48 naftar bo'lib "tahsil oлган" bola ma'lum ball yig'ib, universitetga o'qishga qabul qilindi. Undan biz stag'an mutaxassis chiqadimi? Yo'q, albatta. Bunda kim aybdor? Ota-onami, bolami? O'qituvchi yoki o'quvchi? Bu yerda butun tizim — oila, mahalla, maktab, jamoatchilik, o'qituvchi, rahbar, davlat, butun jamiyat aybdor bo'lib chiqadi.

O'z g'oyalaringizni davlat tashkilotiga — vazirlikka kelib himoya qilishish dehidakisirapsizmi? Siz ham aybdorsiz.

Menda taklif bor: pedagoglarni, olimlarni va ommaviy axborot vositalari vakillarini taklif qilaylik. Siz va boshqa hamfikrlarining bilan birlgiligi yig'iliylik, oly ta'limning dolzarb muammolarini muhokama qilaylik, yechimlarni topaylik.

O'yaylmanni, faqat shunday tenglikka, hamkorlikka asoslangan faoliyatda asosiy maqsadimizga erishamiz — oly ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi pog'onaga olib chiqamiz.

Farhod BABASHEV,
Oly va o'rta maxsus ta'lim vazirlik
axborot xizmati rahbari,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Avgust kengashlari oldidan

Surdopedagogikada didaktik o'yinlardan foydalanish

Frontal va individual mashg'ulotlarda to'g'ri talaffuzga o'rgatishda qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlar o'quv jarayonining samaradorligini oshirib, o'quvchilar diqqatini jalb qilishga yordam beradi. Nutq materialining mazmuni didaktik o'yin talablariga javob berishi kerak. Taqdirm etilgan didaktik o'yin talaffuzga o'rgatish mashg'uloti materialiga mos kelishi

(nutq materiali o'quvchilarga tanish, nutqda ko'p qo'llanuvchanligi, fonetik prinsiplarga muvofiq bo'lishi) lozim.

Har doim qo'llash mumkin bo'lgan "Loto", "Domino", "Vertolina", "Boshqotirma" va boshqa o'yinlar maxsus didaktik o'yinlardir. Quyida namuna keltiramiz:

"So'zlarni to'g'ri o'qi" o'yini

Ushbu o'yin uchun qo'llanma qog'oz(karton) dan tayyorlanadi. Uning tashqi va ichki tomonlari yugori chetlari bilan yopishtilibili, tashqi tarafı teng 6 qismiga shunday bo'linsinki, ularning har birini ko'tarish mumkin bo'lsin. Har birining ortida so'zlar ro'yxatni bo'ldi.

Qo'llanmaga kubik qo'shimcha qilinadi. Uning har bir tomoniga 1 dan 6 gacha raqam yozildi.

Bu qo'llanma bilan ishslash o'yin mazmuni ni tashkil qiladi. Ishtirokchilar kubikni tashlab, qo'llanmaning tegishli bo'lmasini ko'taradi. Bo'limani ochgandan keyin unda berilgan so'zlar ro'yxatini o'qiydi. O'quvchi "Z-S" tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishi kerak. Agar bu tovushlar xatosiz tallaffuz qilinsa, o'quvchi jeton yoki fishka shaklida rag'bat oladi. "Z-S" tovushlarini to'g'ri talaffuz qilib, ko'proq jeton yoki fishka to'plagan o'quvchi g'olib bo'ldi.

Rasmlli topishmoqli boshqotirma

"Topishmoqli boshqotirma" usuli boshlang'ich sinflarda, xoh u yakka tartibda, xoh sinf darsi bo'lsin, o'quvchilarni dars jayronida zerikishdan saqlaydi, darsga qiziqishini orttiradi, boshqotrimani tezroq mustaqil yechishga undaydi.

Usulni qo'llashdan maqsad — darsning qiziqarli o'tishini ta'minlash, o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mavzularning o'zlashtirilishini osonlashtirish. Topshiriq:

U nima?

Sariq, cho'zinchoq — banan.

Butada o'sadigan qizil meva — malina.

Ta'mi, rangi har xil bo'lgan dumalog meva — olma.


Murabbo qilinadigan sariq va qora rangli, cho'zinchoq, kichkina meva — qaroli.

O'zga yurtda o'sadigan dumii paxmoq, ichi sariq meva — ananas.

Rangi to'q sariq, sharbati sevib iste'mol qilinadigan dumalog meva — apelsin.

Sariq rangli, cho'zinchoq, nordon ta'mli meva — limon.

Bularning barchasi sabzavotlar emas — mevalar.



Matematik krossvord

Bu usul 5x5 shaklidagi kataklardan iborat matematik boshqotir madir. Unda qo'shish, ko'paytirish kabi matematik amallar bajariladi. Bu usulda matematik amallar sodda yoki murakkab sonlar yig'indisidan iborat bo'lishi mumkin. U o'quvchining bilim darajasi va salohiyatiga qarab belgilanadi. Jadval ko'rinishidagi boshqotirmada bo'sh kataklar soni 4 ta bo'ldi. O'quvchiga jadvalagi bo'sh kataklarni to'ldirish

uchun to'rtta son beriladi. O'quvchi ularni shunday joylashtirishi kerakki, yig'indi to'g'ri chiqsin.

Yakka mashg'ulotlar yoki sinf darslarida o'quvchilarga individual hamda guruhli yondashib, shu topshiriqni berish mumkin. Bunda o'quvchilarning matematik bilimini sinash, o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash, darsning qiziqarli o'tishini ta'minlash ko'zda tutiladi.



"Domino" o'yini

Bu — rasmlli domino. Bu yerda 4 ta kartochka namunasi keltiriladi. Ularning soni 20 ta bo'lishi kerak. Nutq materiali qolgan 16 domino kartochkasida rasm ko'rinishida taqdirm etiladi. Masalan: tog' — dog', tulki — dum, deraza — tarvuz, tuxum — daraxt, daftor — taxta, tova — doira, tizza — do'lana, tovuq — doska, tugma — dasturxon, terak — danak, tellevizor — daryo, telefon — don, toshbaqa — do'ppi, turna — dori, tuya — divan, tort — darvoza.

O'yin boshlovchisi qo'lidagi xohlagan kartochkani stolga qo'yadi. Ishtirokchilar domino kartochkalarida tasvirlangan har ikki rasm nomini jo'rovozda aytadi. Keyin navbatdagi ishtirokchi qo'lidagi xohlagan domino kartochkasini stolga qo'yadi.

1	+		=	
+		+		+
2	+	3	=	
=		=		=

(4, 5, 5, 7)

	+	3	=	8
+			+	
+			=	3
=		=		=

(5, 2, 1, 7)

	+	5	=	6
+			+	
+			=	6
=		=		=

4

+

12

(1, 3, 3, 8)

O'qituvchi ularning to'g'ri talaffuz qilishiga e'tibor berib boradi. Agar o'quvchi "T-D" tovushlarini to'g'ri talaffuz qilsa, o'zining domino kartochkasini stoldagi boshqa kartochkalarining mos kelgan u yoki bu tomoniga qo'yib boradi.

Domino kartochkalarida tasvirlangan rasmlar nomini jo'r bo'lib, yoki bir o'quvchining o'zi aytishi mumkin. Agar o'quvchi so'zlarda "T-D" tovushlarini noto'g'ri talaffuz qilsa, to shu tovush bor so'zlarini to'g'ri talaffuz qilmaguncha o'yinda ishtirok etmaydi. Kimda ko'p domino qolib ketsa, shu yutqazadi.

Dildora OMONOVA,
Karmana tumanidagi
25-kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan
maktab-internat surdopedagogi

Yutuqlar siri

Xalqaro miqyosda tan olinayotgan, yutuqlari e'tirof etilayotgan Qorako'l tumanidagi 1-IDUMining bu qadar yuksak natijalarini qo'lga kiritayotgani siri nimada?

Viloyatning chekka hududida joylashgan aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan mazkur mo'jazgina maktab-internat 2014-yili tashkil etilgan. O'sha o'quv yilidan boshlab o'quvchilarini birin-kechin salmoqli natijalarini qayd etib, fan olimpiadalarini, bilimlar bellashuvining viloyat bosqichida g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi. 8-sinf o'quvchisi Abdumalik Abduqayumov Lomonosov nomidagi MDUNing Toshkent shahridagi filiali o'tkazgan xalqaro musobaqada kumush medal egasi bo'ldi. Bu yutuq keyingi muvaffaqiyatlar uchun yo'l ochdi. 2015-2016-o'quv yilida maktab-internatning 7 nafr iqtidorli o'quvchisi an'anaviy Lomonosov xalqaro musobaqasida matematika fanidan ishtirok etib, 1 oltin va 3 maxsus diplomga sazovor bo'ldi. 8-sinf o'quvchisi Abbas Sayliyev Xitoy Xalq Respublikasida o'tkazilgan matematika bo'yicha maktab o'quvchilarining Xalqaro fan olimpiadasida kumush medal bilan taqdirlandi. 2016-2017-o'quv yili maktab-internat hayoti niyoyatda omadli va quvchonli bo'ldi. Shu yili 7-sinf o'quvchisi Shahboz Hasanov Tailand qirolligida o'tkazilgan xalqaro fan olimpiadasida yakkalikda bronza, jamoa tarkibida kumush medalni qo'lga kiritdi, Yaponiyada matematika fanidan o'tkazilgan musobaqada esa gran-pri sohibi bo'ldi.

Maktab-internat o'quvchilarining 2017-yili may oyida Hindistoning Lakhnau shahrida bo'lib o'tgan xalqaro matematiklar xalqaro fan olimpiadasidagi ishtiroki nafaqat viloyat, balki butun mamlakatimiz uchun muhim voqebo'ldi. Bu ishtirok O'zbekiston sharafini ko'klarga ko'taruvchi g'alabani tuhfa etdi. Mazkur nufuzli musobaqa Sevara Ostonova va Doniyor Ismoilov oltin medalini qo'lga kiritdi. Olimjon Olimov hamda Domiyor Po'latov kumush medal sohibi bo'ldi. 2017-2018-o'quv yili ham Samarcand shahrida ilk bor fizika fanidan o'tkazilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro olimpiadada 10-sinf o'quvchisi Bobur Halimov bronza medalini qo'lga kiritib, oliy o'quv yurtiga imtizozli ravishda o'qishga kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bolgariyada bo'lib o'tgan matematikadan xalqaro fan olimpiadasida Doniyor Ismoilov oltin, Laziz Rajabboyev kumush medal, Sevara Ostonova maxsus diplomni qo'lga kiritib, jamoaviy bahslarda kumush medalga sazovor bo'ldi. Aynan shu o'quvchilar Ozarboyjonda bo'lib o'tgan matematika, fizika va kimyo fanidan xalqaro olimpiadada ham muvaffaqiyatlari ishtirok etib, yakkalik va jamoaviy bahslarda kumush medalni qo'lga kiritdi. Bu kabi yutuqlar ro'yxatini yana uzoq davom ettirish mumkin. Iqtidorli qiz Sevara Ostonovaning bu yil Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga loyiq topilgani maktab-internat jamoasi uchun yana bir quvonchli voqebo'ldi.

Bog'bon o'zi yerga qadagan urug'ning gullaganini, meva tugib,

